

## O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA ISLOM MOLIYASINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Razzaqova E'zoza Yusup qizi | [razzaeyusup@gmail.com](mailto:razzaeyusup@gmail.com)

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Islom moliyasi tushunchasi va uning tarixi. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida ushbu moliya tizimiga bo'lgan talab hamda Islomiy moliyaning an'anaviy moliya tizimlaridan afzal jihatlari. Shuningdek, Islom moliyasi mahsulotlari tushunchalarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Islom moliyasi, moliya mahsulotlari, mudoraba, mushokara, ribo, g'aror, islomiy darchalar.

---

## PROSPECTS OF USING ISLAMIC FINANCE IN PRACTICE OF UZBEKISTAN

Razzakova Ezoza Yusup qizi

*Master's degree student of Tashkent State University of Law*

**Abstract.** This article discusses the concept of Islamic finance and its history. It also highlights the requirements of the Islamic financial system in the activities of entrepreneurial subjects in the Republic of Uzbekistan, as well as the advantages of Islamic finance over traditional financial systems. Additionally, it explains the characteristics of Islamic financial contracts.

**Key words:** Islamic Finance, Financial Products, Mudarabah, Mushakara, Riba, Gharor, Islamic Window.

---

## ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ НА ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Раззакова Эзола Юсуп кизи

*Магистрант Ташкентского государственного юридического университета*

**Аннотация.** Эта статья о концепции исламских финансов и их истории. Востребованность данной финансовой системы в деятельности субъектов хозяйствования Республики Узбекистан и преимущества исламских финансов перед традиционными финансовыми системами. Он также объясняет концепции исламских финансовых продуктов.

**Ключевые слова:** Исламские финансы, Финансовые продукты, Мудараба, Мушокара, Рыба, Гарор, Исламское окно.

---

**Kirish.** Rivojlanib borayotgan davr talabiga binoan, hozirgi kunda an'anaviy moliya tizimi bilan bir qatorda asrlar davomida mavjud bo'lgan va keng ko'lamda o'z aksini endigina topib borayotgan moliya tizimi bu- Islom moliyasi. Ushbu moliya tizimida foiz orqali daromad qilish qoralanadi va jamiyat manfaatlari barchasidan ustun qo'yiladi. Islomiy moliyada qarzdand olingan har qanday daromad(ribo)ni qoralaydi. Qarzdandan mukofot sifatida olingan o'sish ribo hisoblanadi.

Islom moliyasi tushunchasi. Islomiy moliya — bu islom qonunlari yoki shariatga muvofiq ishlaydigan moliyaviy tizim. U adolat va axloqiy xulq-atvor tamoyillariga asoslanadi. Islomiy moliyada moliyaviy amaliyotlar shariat qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak, bunda foiz olish yoki to'lash (ribo), qimor (maysir) va chayqovchilik (g'aror) bilan shug'ullanish taqiqlanadi. Islom moliyasining ildizlari VII asrdan boshlangan islom savdo huquqi tamoyillariga borib taqaladi. Islomiy moliya tamoyillari foyda va zararni taqsimlash, ijtimoiy mas'uliyatli loyihalarni moliyalashtirishga asoslanadi. Islomiy moliya mahsulotlari va xizmatlariga foyda va zararni taqsimlash hisoblari, islom obligatsiyalari (sukuk), islom sug'urtasi (takaful) va islom ipotekalari (ijara) kiradi. Yaqin Sharq, Osiyo va Yevropaning ko'plab mamlakatlarida Islomiy moliya

institutlarini tashkil etish yoki Islomiy moliya mahsulotlari va xizmatlarini taklif qilish bilan soʻnggi yillarda Islomiy moliya tobora ommalashib bormoqda. Bir soʻz bilan bilan aytadigan boʻlsak, islom moliyasi shariat qoidalariga asoslangan, insoniylik va umummanfaatni ustun qoʻyuvchi moliya tizimidir. “Islomiy moliya – bu axloqiy tamoyillar doirasida saqlanadigan pulni boshqarish usulidir. U jamgʻarma, sarmoya kiritish va uy sotib olish uchun qarz olish kabi narsalarni qamrab oladi”[1]. “Islomiy moliya - bu shariatga (Islom qonunlariga) mos kelishi kerak boʻlgan moliyaviy faoliyat turi”[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida grafik va statistik jadvallar, taqqoslama tahlillar, guruhlash usullari hamda mavzuga doir milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Islomiy moliya haqida gapirar ekanmiz, avvalo uning tarixiga toʻxtalib oʻtsak. “Islom iqtisodiyoti” atamasi ilk bor hindistonlik musulmon olimi S.M. Gʻiloniyning 1947-yilda urdu tilida chop etilgan “Islom iqtisodiyoti” kitobida bayon etilgan. Gʻiloniy islom dini talablariga muvofiq keluvchi mukammal iqtisodiy model haqida fikr yuritgan. Lekin jahondagi dastlabki islomiy moliya muassasalarini tashkil etish “Islom iqtisodiyoti” chop etilishidan oʻn besh yil oʻtgach amalga oshirildi. Atama ilmiy doirada 1970-yilning oʻrtalariga kelib ishlatila boshlandi.[3]

*Islom moliyasining rivojlanish tarixi.* Islom moliyasining tarixiga keladigan boʻlsak, u paygʻambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v ga vahiy kela boshlagan davrlarga, yaʼni ushbu din kurtak ota boshlagan milodiy VII asrga borib taqaladi. Paygʻambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v ning siyratlariga nazar soladigan boʻlsak, u umri davomida riboga yoʻl qoʻymay, shariat belgilagan va yaratuvchi koʻrsatgan yoʻldan chetga chiqmay umuminsoniy manfaatlarni oʻz manfaatidan ustun qoʻygan holda ish koʻrgan va islom moliyasi tarixining bir boʻlagiga aylangan. “Islom iqtisodiyoti” atamasi ilk bor hindistonlik musulmon olimi S.M. Gʻiloniyning 1947-yilda urdu tilida chop etilgan “Islom iqtisodiyoti” kitobida bayon etilgan. Gʻiloniy islom dini talablariga muvofiq keluvchi mukammal iqtisodiy model haqida fikr yuritgan. Lekin jahondagi dastlabki islomiy moliya muassasalarini tashkil etish “Islom iqtisodiyoti” chop etilishidan oʻn besh yil oʻtgach amalga oshirildi. Atama ilmiy doirada 1970-yilning oʻrtalariga kelib ishlatila boshlandi.[4] Biroq butun dunyo miqyosida islomiy moliya tarixini keng yoyilishiga asos sifatida Mit Gʻamr jamgʻarma banki va 1963-yilda Malayziyada

joylashgan Tabun Haj Lembagani tashkil etilishini aytish mumkin. Nil deltasida joylashgan Mit G'amr jamg'arma banki jamg'arma hisob varaqlar, hissadorlik kapitalida ulushli ishtirok, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va ijtimoiy xizmatlar kabi bank xizmatlarini taklif etdi. Ushbu xizmatlar asosiy bank xizmatlari sifatlarida ko'rib chiqilsada, eng muhimi atrofdagi jamiyatning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish edi. Shuningdek, ushbu bank iste'molchilarni sudxo'rlardan himoya qilishga yordam berdi. Mit G'amr, shuningdek, o'z mijozlarida o'zlarining bizneslariga sheriklik hissini uyg'ota oldi. Ushbu omillar bank muvaffaqiyatiga turtki bo'ldi. Biroq notinch siyosat bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1967-yilning ikkinchi yarmida Misr Milliy banki va Markaziy bankning vazifalarini o'z bo'yniga oldi. Islomiy bankning tarixiga qo'shilgan eng ulkan hissa bu so'zsiz Mit G'amrning jamiyatga an'anaviy bank tizimining muqobili borligini ko'rsatganligi bo'ldi. Yana bir Islomiy moliya banklarini tashkil etishda tashabbuskor davlatlardan biri Malayziyadir, u ilk bor o'zida bu amaliyotni sinab ko'rди va hozirgi kunda jahonda Islom moliyasi eng yaxshi rivojlangan davlatlardan biridir. Shu tariqa 1963-yilda hamkorlikdagi investitsiyalarni boshqaruvchi kompaniya vazifasini o'z zimmasiga olgan Malayziya Hojilar jamg'armasi (Pimgrims Fund Board, Lembaga Tabung Haji) tashkil etildi. Lembaga Tabung Haji Malayziyaning yetakchi moliyaviy muassasasi hisoblanadi. Muassasa depozitlar, haj bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, moliyaviy amaliyotlar va investitsiyalarni boshqarish bilan ishlash borasida 50 yillik tajribaga ega. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri musulmonlarga haj amalini amalga oshirish maqsadida shariatga muvofiq mablag' jamg'arib borishda yordam berish edi. Ushbu tashkilot qo'shaloq strategiyaga ega hisoblanib, ulardan biri musulmonlarning iqtisodiy muammolarini yechishga yo'naltirilganligi va ikkinchisi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida ishtirok etish edi. 1963-yilda tashkilot atigi 5000 kishining haj jamg'armalarini 13 nafar xodim yordamida boshqargan. Bugungi kunda esa tashkilot 24 mingdan ortiq kishilarning haj jamg'armalarini boshqaradi. Malayziyaning bugungi taraqqiyotida o'tgan asrning 90-yillaridagi Bosh vazir Mazohir Muhammadning harakatlari beqiyosdir. U islomiy bank ochish istagida bo'lganlarga foizsiz byudjet qarzi berish tizimini joriy qildi. Islom moliyasi tarixidagi eng ulkan natija bu 1975-yilda 22 davlat birgaligida tashkil etilgan Islom taraqqiyot banki edi. Shu yilda Dubayda ham bir

Islomiy bank ro'yxatga olindi, 70-80-yillar boshida hammasi bo'lib 16 ta Islomiy muassasa tashkil etildi.

Zamonaviy Islomiy bank tizimi tarixini 4 ta asosiy bosqichga ajratish mumkin:[5]

1) Tashkil etish davri – 1950-1960-yillarni o'z ichiga oladi. Islomiy olim va iqtisodchilar foiziga asoslangan dunyoviy banklarning real muqobilini taklif etish maqsadida Islomiy banklarni joriy qilishni boshladilar. Islomiy moliyalashtirishning tayanch tamoyillarini tatbiq etish boshlandi va Islomiy moliyaviy muassasalar faoliyat mexanizmi birinchi marta soddalashtirildi;

2) Kengaytirish davri – 1970-yillar, Islomiy bank va islomiy nobank muassasalari tashkil etildi, ilmiy faoliyat tashkillashtirildi, ilmiy-tadqiqot muassasalari ta'sis etildi, "Muzoraba" moliyaviy mexanizmi tasdiqlandi, Jiddada Islomiy iqtisodiy ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi, Islomiy banking bo'yicha kitoblar chop etila boshlandi, Islom Taraqqiyot banki ochildi;

3) Xalqaro e'tirof davri – 2000-2009-yillar, Islomiy banklarni qo'shib yuborish orqali kapitallashuv amalga oshirildi, Aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar bozori tashkil etildi, 2002-yilda Malayziyada Islomiy moliyaviy xizmatlar bo'yicha kengash "IFSB" ta'sis etildi;

4) O'z qarashlarini qayta ko'rib chiqish va inqirozdan keyingi yangi istiqbollar davri – 2009-yildan hozirgi vaqtgacha, 2010-yili Germaniyada birinchi islomiy bank ochildi (Kuveyt Turk Participation Bank), Thomsan Reuters 2011-yili birinchi islomiy banklar aro stavkani o'rnatdi, 2012-yilda Saudia Arabistoni va Turkiya o'zlarining birinchi sukuklarini chiqardilar, 2013-yilda esa JAR o'zining mustaqil sukuklarini chiqardi, Buyuk Britaniya bosh vaziri Jahon islomiy iqtisodiy forumida Londondi Global islomiy moliyaviy markaz sifatida rivojlantirish haqida bayonot berdi.[6] Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Islom moliyasining ildizi milodiy VII asrga borib taqaladi, biroq uning butunjahon miqyosida rivojlanib borishi o'tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi. XXI asrning boshlarida esa, ushbi moliya tizimi Yevropa mamlakatlari orasida ham keng qo'llanila boshlandi.

**Islom moliyasining mahsulotlari.** Islom moliyasining mahsulotlari bir so'z bilan aytganda – ilsom moliyasi vositalari hisoblanadi ya'ni mijoz va xizmat ko'rsatuvchini aynan qaysi usul orqali bog'lashni o'zida mujassamlashtiruvchi mahsulotlar. Qisqa qilib mahsulotlarni mijoz va xizmat ko'rsatuvchi o'rtasidagi

bitimlar deyish ham mumkin. Moliya mahsulotlari Islom moliya tizimida uchga bo'linadi

- Savdo bitimlari- murobaha, ijara, istisna, salam;
- Sherikchilik bitimlari- mushoraka, mudoraba;
- Boshqa bitimlar – kafillik[7].

*Murobaha.* Murobaha fiqhiy tushuncha bo'lib, ma'lum narsani sotishda qo'llaniladigan shartnomadir. Murobaha atamasi hozirgi kunda bank amaliyotida eng ko'p uchraydigan termin hisoblanadi. Oddiy til bilan aytganda, sotuvchi muayyan molni tannarxning ustiga foyga ustamasini qo'yib xaridorga sotishga kelishsa, bunday savdo murobaha deyiladi. Murobaha savdosining asosiy mohiyati shundaki, sotuvchi savdo molining tannarxini va qo'yilyotgan ustamani xaridorga ochiq-oydin aytadi. Bu ustama yaxlit pul miqdorida 50 ming so'm yoki 20% ko'rinishida bo'lishi mumkin. Murobahada tomonlar kelishuviga ko'ra to'lov darhol yoki keyinroq amalga oshirilishi mumkin.

*Ijara.* Ijara fiqhiy atama bo'lib, lug'aviy ma'nosi "bir narsani ijaraga berib turish" degan ma'noni anglatadi. Islom moliyasida ijaraning ikki turi mavjud biri ishchi va ish beruvchi o'rtasida, ikkinchisi aktiv va mulklardan foydalanish holatiga taalluqli. Birinchi turiga shifokor, huquqshunos, o'qituvchi, ishchi yoki boshqa har qanday kasb vakillarining xizmatlari kirishi mumkin. Bunda ish beruvchi mustajir ishchi esa ajir deb nomlanadi. Ikkinchi turida esa ijara muayyan mulkni ijara haqi evaziga boshqa shaxsning foydalanishiga topshirish amaliyotini bildirib, ingliz tilida qo'llaniladigan "lizing" atamasi bilan bir xil ma'noni bildiradi. Bunda lizing beruvchi mujir, lizing oluvchi mustajir va lizing beruvchiga to'lanadigan ijara haqi "ujra" deb nomlanadi. Ushbu ijara turi investitsiya qilish va moliyalashtirish bilan bog'liq masalalarda qo'llaniladi.

*Mushokara.* Mushoraka arabchada sherikchilik qilish degan ma'noni anglatadi. Biznes va savdo talqinida esa barcha sheriklar olingan foyda va zararni baham ko'ruvchi sherikchilik tijoratini anglatadi. Bu ishlab chiqarish va taqsimotga keng ta'sir o'tkazuvchi foizga asoslangan moliyalashtirishning eng afzal muqobili sanaladi. Zamonaviy kapitalistik iqtisodiyotda foiz keng miqyosida har qanday moliyalashtirish turi uchun ishlatiluvchi moliyaviy instrument hisoblansa, Islom dini riboni taqiqlagani uchun ushbu instrumentni hech qanday sarmoya kiritish usuli sifatida ishlatib bo'lmaydi. Shu sababdan islomda mushorakaning o'rni katta. Islomiy moliya tez rivojlanayotgan soha bo'lib,



dunyoning bir qancha mamlakatlari tomonidan qabul qilingan. Biroq, O'zbekiston, asosan, musulmonlar davlati bo'lishiga qaramay, islomiy moliyani o'rnatishda sustlik qilmoqda. O'zbekiston tarixiga nazar solsak, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi dengizga chiqish imkoni yo'q bo'lgan, 1991 yilda Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgan davlatdir. O'shandan beri O'zbekiston muhim siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. O'zbekiston asosan musulmonlar mamlakati bo'lib, aholining 90% dan ortig'i sunniy islomga amal qiladi. Islomiy moliya esa shariat qonunlariga mos keladigan moliyaviy operatsiyalar tizimidir. Shariatga muvofiq moliyaviy operatsiyalar ribo (sudxo'rlik yoki foiz), g'aror (noaniqlik yoki tavakkalchilik) va maysir (qimor yoki chayqovchilik)ni harom qilishni o'z ichiga oladi. Islomiy moliya adolat va axloqiy xulq-atvor tamoyillariga asoslanadi. O'zbekistonda islomiy moliyaning joriy etilmaganligi sabablari asosan quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Mamlakat aholisining islomiy moliyalashdan to'liq xabardor emasligi. O'zbekistonda islomiy moliya joriy etilmaganining asosiy sababi aholining shariatga muvofiq moliyalashtirish afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligidir. O'zbekistonda ko'pchilik islomiy moliya tizimi va uning afzalliklaridan bexabar. Ogohlikning yo'qligi O'zbekistonda islomiy moliyani qabul qilinishini to'xtatib turgan omillardan biri bo'lishi mumkin;

2. Normativ-huquqiy bazaning yo'qligi. Islomiy moliya O'zbekistonda joriy etilmaganining yana bir asosiy sababi me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligidir. O'zbekistonda haligacha islomiy moliyani joriy etishga ko'maklashish uchun zarur huquqiy va tartibga soluvchi infratuzilma yaratilmagan. Bunga nazorat qiluvchi organlar, soliq qonunlari va moliya institutlari kiradi.

3. Cheklangan mahsulot xilma-xilligi: Hozirda O'zbekistonda cheklangan miqdordagi islomiy moliyaviy mahsulotlar mavjud. Bu sanoatning o'sishiga to'sqinlik qilishi va investitsiya imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

4. Cheklangan inson kapitali: Islomiy moliya sohasida tajribaga ega kuchli iqtidorlar zaxirasini rivojlantirish sanoat muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Biroq, islomiy moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va boshqarish uchun zarur ko'nikma va bilimga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmasligi mumkin. Bu borada Oliy ta'lim sohasida va so'ngi yillarda rivojlanib borayotgan xususiy ta'limda ham Islom moliyasini o'rgatuvchi moliyaviy maktablarga asos solinishidi ushbu muammoni ancha kamaytiradi

Yuqorida aytib o'tilgan masalalar birin-ketn o'z yechimini topib bormoqda. Normativ-huquqiy bazaning yo'qligi bu mamlakatda ushbu moliya tizimiga doir biror bir qonun yo'q degani emas. Joriy 2023-yilning dekabr oyiga qadar mutasaddilar Islomiy moliya asoslarini o'zida jamlagan qonunchilik loyihasini ishlab chiqish arafasida bundan tashqari yaqin o'tmishda ham bu borada ba'zi ishlar amalga oshirilgan. Respublikamizda ham aholining asosiy qismi, ya'ni 90 foizdan ortig'i musulmonlardan iborat ekanligini e'tiborga olsak, Islom moliyasi xizmatlarining joriy etilishi va rivojlanishi Xalqimizning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" O'RQ-765-son qonuni[3]ning qabul qilinishi va bu qonunga asosan islom moliya xizmatlarining nobank moliya muassasalarida joriy etilishi bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlardan biri hisoblanadi.[8] Shuningdek, 428-son 23.05.2019 da qabil qilingan Vazirlar mahkamasining "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [9]gi qarorida ham ushbu sohada sekinlik bilan bo'lsada rivojlanish borligini nazarda tutadi. Mamlakatdagi ushbu moliya tizimida huquqiy tamoyillarni yaratishga qaratilgan harakat 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan murojaati bilan jonlandi deyish mumkin. Unda prezident "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy ba'zani yaratish vaqti-soati keldi" qabilidagi fikrni ilgari surgan edi. Davlat rahbari Markaziy bankka moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, shuningdek, islomiy moliya mexanizmlarini joriy etish maqsadida huquqiy asos yaratish uchun 1-fevralgacha nobank kredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun loyihasini ko'rib chiqish topshirig'ini bergan.[10] Shundan so'ng 2022-yil boshlarida O'zbekistonda Islom moliyasi va bankini joriy etish masalasi bo'yicha Buyuk Britaniya konsalting kompaniyasi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Qayd etilishicha, delegatsiya a'zolari vazirlik tomonidan Islom taraqqiyot banki ko'magida taklif etilgan. Ular Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, tijorat banklari, mikrocredit, lizing va sug'urta tashkilotlari vakillari bilan muzokara olib borgan. Ma'lumot uchun, IFAAS islom moliyasi bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro konsalting firma bo'lib, 50 ga yaqin mamlakatda ko'plab maslahat loyihalarini amalga oshirgan. 15 yillik



tajribaga ega tuzilma, shu jumladan, ko'plab ilg'or islom moliyasi bo'yicha loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlagan. Qilinayotgan harakatlar ayni asosli sababi tadbirkorlik subyektlarining bir qismi va aholining salmloqli qismi an'anaviy moliya tizimlaridan foizlar ularning diniy e'tiqodlariga mos emasligi bois foydalanmayotgani ushbu masalani ancha dolzarblashtirdi. Bu borada yanada yangi islohotlar uchun quyidagi masalalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Avvalo, ushbu yo'nalishga doir mustahkam qonun hujjati yaratilishi lozim, shu davrga qadar qilingan harakatlarning barchasi deyarli qog'ozligicha qolgan. Buning uchun Fuqarolik kodeksiga islomiy mahsulotlarni (shartnomalarni) kiritish, hamda aynan mana shu yo'nalishda ishlovchi alohida normativ-huquqiy hujjat yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, bu sohada kadrlarni tayyorlab beruvchi alohida institut va maktablar tashkil qilish, Oliy ta'lim sohasida ushbu yo'nalishga atalgan o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, talabalarning istalgan paytda bu soha haqida o'zbek tilida ma'lumot topa olishlarini ta'minlash. Umuman olganda bu boradagi o'qitish va ilmiy manbaa o'chog'ini ishlab chiqish va kengaytirish.

Bank tizimini erkinlashtirish ya'ni odatiy banklarga ham islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini berish. Bunda istalgan odatiy bankda islomiy moliya darchalari tashkil etiladi va shariatga qoidalariga asosan insoniylik tamoyillari negizida xizmatlar ko'rsatiladi. Umumiy xulosa sifatida, mamlakatlar o'z ijtimoiy va siyosiy kelib chiqishidan, dinidan va moliyaviy salohiyati yuzasidan o'z moliyaviy tizimlarini tanlaydilar, islom moliyasi shunday moliya tizimiki, u muqobil moliyalash xizmatlari bilan har qanday mamlakatda o'zini oqlay olishi mumkin. Asosiy muammolar bartaraf etilib bu moliya tizimini to'liq bo'lmasada muqobiul sifatida mamlakatimiz tajribasida qo'llash vaqti keldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bank of England, How is Islamic finance different to other types of finance? What is Islamic finance? Bank of England. 16.11.2022. <https://www.bankofengland.co.uk/explainers/what-is-islamic-finance#:~:text=Islamic%20finance%20is%20a%20way,the%20'Shari'ah>‘.
2. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/capital-markets/islamic-finance/>
3. “Islom iqtisodiy modeli va zamon” R.I.Bekkin 5-bet.
4. “Islom iqtisodiy modeli va zamon” R.I.Bekkin 5-bet.
5. Islomiy moliya asoslari E.A.Baydaulet 2019, 25-bet.
6. A.M. Tiby. Islamic Banking: How to manage risk and improve profitability / A.M. Tiby – J. Wiley&Sons – 2010.
7. <https://islommoliyasi.uz/uz/category/islom-moliyasi/moliya-mahsulotlari/>
8. Islomiy moliya va o‘zbekiston moliya tizimida undan foydalanish istiqbollari – тема научной статьи по экономике и бизнесу читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru/article/n/islomiy-moliya-va-o-zbekiston-moliya-tizimida-undan-foydalanish-istiqbollari>
9. <https://lex.uz/docs/-4351726> 428-son 23.05.2019 da qabil qilingan Vazirlar mahkamasining “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
10. O‘zbekistonda islom moliyasi va bankini joriy etish masalasi ko‘rib chiqildi. Daryo.uz 20.02.2022 <https://daryo.uz/2022/02/20/ozbekistonda-islom-moliyasi-va-bankini-joriy-etish-masalasi-korib-chiqildi>